

**NILUFAR UMAROVA SHE'RLARIDAGI METAFORALARNING  
FALSAFIY VA PSIXOLOGIK HOLATLAR TASVIRLAR**

***U.N.Nusurov***

*Mustaqil tadqiqotchi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Nilufar Umarovaning she'riyatida metaforalarning falsafiy va psixologik holatlar tasviridagi o'rnini yoritadi. Tadqiqotda shoiraning poetik uslubi, obrazlar tizimi va ruhiy kechinmalarni badiiy ifodalashdagi mahorati chuqur tahlil qilinadi. Umarovaning metaforalari nafaqat badiiy bezak, balki insonning ichki olami, iztiroblari, umid va quvonchlarini ifodalovchi ruhiy vosita sifatida qaraladi.

*Tahlil davomida shoiraning “yo'l”, “quyosh”, “tandir”, “oy”, “shamol”, “tong”, “gullar” kabi obrazlar orqali inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini qanday tasvirlay olgani ko'rsatiladi. Metaforalarning psixologik funksiyasi sifatida ular ong osti kechinmalari, ichki dialoglar va ruhiy uyg'onish jarayonlarini ochib berishdagi o'rni asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** metafora, psixologik tahlil, falsafiy ifoda, o'zbek she'riyati, obrazlar tizimi, ruhiy kechinma, poetik tafakkur.

Metafora Nilufar Umarova she'riyatining eng muhim, markaziy ifoda vositasidir. U shoiraning badiiy tafakkuri, ruhiy olami va falsafiy dunyoqarashining estetik shaklga aylangan ko'zgusidur. Shoira metaforani oddiy bezak emas, balki mazmunni yuksaltiruvchi, ichki dunyoni ochuvchi, hayotga yangi nigoh tashlashga imkon beruvchi vosita sifatida ishlatadi.

Nilufar Umarova metaforani ichki kechinmalarni ifodalovchi kuchli vosita sifatida ishlatadi. U hissiyotlarni — dard, og'riq, sevgi, yolg'izlik, umid, qo'rquv kabi holatlarni tashqi dunyoga obrazlar orqali etkazadi.

Misollar:

- “Yuragim cho'kdi” – tushkunlik, iztirob;

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

- “Tun ko‘zlarida jim” – yolg‘izlik, ruhiy sukunat;
- “Ko‘nglimning uyiga qamalgan hislar” – hissiyotlar bostirilgan holat.  
Shoira hayot, o‘lim, ruh, vaqt kabi *ontologik* savollarni obrazlar orqali badiiy talqin qiladi.

Misollar:

- “Yulduzlari tashlab ketgan falakman” – mavjudlikdagi yo‘qsizlik holati;
- “Hayot – senga berilgan savol, o‘lim – javobdir” – borliq falsafasi.

Shoira xalqona obrazlar orqali (tandir, non, oy, quyosh) *milliy tafakkur* va *ruhiy holatni* uyg‘unlashtiradi.

Misollar:

- “Tandiridan kulcha quyoshni uzib...” – quyoshning hayot manbai sifatidagi talqini;
- “Nurlarin ularashar nonday...” – yorug‘lik va umidning non bilan qiyoslanishi.

Nilufar Umarova quyosh, tong, shamol, oy, gullar kabi obrazlar orqali ichki dunyo, kayfiyat, iztirob va uyg‘onish holatlarini ifodalaydi.

Misollar:

- “Quyosh kulayotir qirmizi gullarning lablari bilan” – hayotga quvонч, muhabbat, ehtiros timsoli;
- “Daydi shamol” – orzularning beqarorligi, xayolotning o‘zgaruvchanligi.

Shoiraning she’rlarida ayol kechinmalari, ruhiy to‘lqinlar, ijtimoiy bosimlar metaforalar orqali ifodalanadi.

Masalan,

- “Oyoqyalang yurarman hali” – fidoyilik, o‘zini azobga tashlash orqali boshqani asrash;
- “Uvishgan qalbim osudalik istar” – ruhiy sovuqlikdan qutulish, ichki halovat istagi.

Nilufar Umarovaning poetik uslubi – chuqur hissiyot, obraz boyligi va

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

mazmunli soddalik bilan ajralib turadi. Uning lirikasi faqat ichki kechinmalar emas, balki ijtimoiy-falsafiy fikrlarni ham o‘zida jamlaydi. Metaforalar bu yerda mazmun va shakl uyg‘unligining asosiy ko‘prigi bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda: Nilufar Umarovaning she’riyatidagi metaforalar – bu faqatgina tasviriy vosita emas, balki inson ruhiyatining tili, falsafiy tafakkurning obrazli shakli, ayollik kechinmalarining ichki ovozi va milliy madaniyat bilan uyg‘unlashgan poetik ong ifodasidir.

Uning har bir misrasi – bu inson qalbining chuqur qatlamlarida sodir bo‘layotgan *sukunatlar, faryodlar, izlanishlar va shukronalar* metaforik pardada aks etgan she’riy obrazlardir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qozoqboy Yo‘ldosh. Zamonaviy o‘zbek ayol shoiralari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2022.
2. Umarova M. Lingvopoetik tahlil asoslari. – Samarqand, 2021.
3. de Bono E. “Ijodiy fikrlash va obrazli tafakkur”, tarj. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2020.
4. Leontyev D.D. Motivatsiya va ijodiy tafakkur psixologiyasi. – Moskva, 2019.
5. N.Umarova. Nilufar Umarova. She’rlar & Eshqobil Shukur. Tushlanib uyg’onar uyqudagagi gul. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/nilufar-umarova-sherlar.html>